

## **RANGTASVIRDA QALAMTASVIR O'RNI MUHIM-MI ?**

**Xalilov Ruslan Shavkatovich**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Tasviriy san'at kafedrasи mudiri, dotsent*

**Annotatsiya:** Maqolada tasviriy san'atning turi bo'lган grafika ya'ni qalamtasvirning rangtasvirda tutgan o'rni beqiyosligi haqida nazariy fikr va mulohazalar hamda amaliy qo'llanilishi tahlil etiladi.

**Annotatsiya:** Статья посвящена теоретическому анализу академической живописи и основам графического рисунка в практических занятиях изобразительного искусства а также методике преподавания роли рисунка в живописи.

**Resume:** The article is devoted to the theoretical analysis of academic painting and the basics of graphic drawing in the practical studies of fine art as well as the methodology of teaching the role of drawing in painting.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, tur va janr, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, fazoviy perspektiva, bo'yоq, rang va tus, shtrix, nisbat, hajm, joylashtirish, uyg'unlik, surtma, yorug' va rang munosabatlari.

**Ключевые слова:** изобразительное искусства, вид и жанр, рисунок, живопись, композиция, воздушная перспектива, краска, свет и тон, штрих, пропорция, объем, компоновка, гармония, мазок, световое и цветовое отношение.

**Keywords:** art, look and genre, drawing, painting, composition, aerial perspective, paint, color and tone, stroke, proportion, volume, layout, harmony, brushstroke, light and color ratio.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali integratsion ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. SHu jihatdan oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi ijtimoiy rolini oshirish, kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, kompetentsiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish asosida talabalarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Hozirda Respublikaning turli oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida talabalarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda. Talabalarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san'at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etidi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakul'tetlarida, ixtisoslashgan maktablarda o'qitiladigan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagoglar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Tasviriy san'atda rangtasvir fani ixtisoslashgan maktablarda o'qitiladigan barcha fanlar qatori muhim hisoblanadi va ular orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'lmini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin[1,19].

«Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisol suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinci. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi» [2, 124].

Rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilishi usullarini izlash yo'lidir.

SHularga bog'liq holda har bir talaba buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lshi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ifoda eta olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydilar: «Bu yuz foiz qalamtasvir va yuz foiz rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir».

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liqidir. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma- ketlikda ishni tuslash va h.k) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. SHuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi o'rganish mashq jarayonlari uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Eduardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida «rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak», degan savoliga ustoz rassom Tintoretto: «Rasm chizish!» deb javob bergen. Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: «Rasm chizish va yana rasm chizish!» deb javob qilgan u-rasm chizish rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini xaq, deb bilgan [3, 257].

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) «har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan». «Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar ummonlarida cho'kayotganlarga najot berish omilidir,- deya ta'kidlagan SHarl Lebren.

Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan. «Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa ular rangtasvirni ustasi bo'lib yetishadi».

«Shunday narsa mavjudki u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu- qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham haykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi»,- deb aytgan Karachchi. «Har qanday shaklni ajoyib nafis qiluvchi ranglar emas balki aniq chizilgan qalamtasvirdir»- degan Titsian. «Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir»,-deya doim takrorlagan V.E.Makovskiy. «Qalamtasvirni puxta bilmagan ijod ham qila olmaydi»,- deb ta'lim bergen P.P.CHistyakov. I.E.Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan, va uni «rangtasvirni asosi», deb hisoblagan.

A.V.Vasnetsov, P.P.Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, «uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir edi», deb eslaydi. A.Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog mакtabida, hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha bo'lib (shaklning konstruktiv tuzilishi,tus-soya,yorug' munosabatlari aks etgan tasvir, grizayl), u uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab olinib- so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan.

Mashhur rassomlarning ko'pchiligi avvalambor yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.SHishkin, V.E.Makovskiy, V.A.Polenov, I.E.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, M.Nabiev, R.Ahmedov, B.Jalolov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi mohir mo'yqalam sohiblari kiradi.

D.N.Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu qalamtasvirning rangda davom etishi deb aystsak, shaklning rangda talqin etilishi qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P.Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib shunday yozgan:

«Rangtasvirning haqiqiy usuli-bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoy surtmadir» [ 4, 27].

Ixtisoslashgan maktablarda tarbiyalangan o`quvchilar ham tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratilgan ijodiy ishning qiymatiga qarab baholanadi va qadrlanadi.

Talabalar rangtasvirda mohirona ijod qilishlari uchun quyidagi bilim va malakalarni puxta o'zlashtirmog'i lozim:

1.Kuzatuv perspektiva (ufq chizig'i, yassi jismlar va ufq chizig'i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarni konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, inter'er va ekster'er).

2.Tsilindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi.

3.Geometrik shakllarda soya-yorug' munosabatlari (kub, tsilindr va shardagi soya-yorug'likning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).

4.Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarni soya-yorug' xususiyati, tus munosabatlari, hajjni ko'rsatishda chiziq va «shtrix»ni o'rni fazo va moddiylik).

Talabalar qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lmoshni lozim: qo'yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni sezab bilish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish shakl hajmini tushayotgan soya-yorug' orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jihatidan yaxlit bir butunlikda yakunlashi zarur. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. SHakl hajmini tasvirlashda tus o'rmini mohiyatini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi. Demak eng muhimi talabalarning qalamtasvirda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlashi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida talabalarni rangtasvirda samarali ijod qilishlariga qulay imkon yaratadi.

Talabalarning uzlusiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik o'zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashlariga zamin yaratiladi. Tajribali rassomlarning ranglavhalarini kuzatganlarida ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraydilar. Shuning uchun talabalar mohirona tasvirlash malakasiga ega bo'lishlari uchun doimo o`qishlari, izlanishlari va doimiy tinmay mashq qilishlari natijasida ko'zlangan maqsadga erishadilar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N., «Rangtasvir». -T., O'zbekiston, 2006, 19-bet.
- 2.Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- 3.Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ЛОГОС.  
<https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
- 4.Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. Общество и инновации, 2(4/S), 607–613.  
<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
- 5.Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 97-103.
- 6.Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. Общество и инновации, 2(5/S), 59–67.  
<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
- 7.Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- 8.Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra. (2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 33–39. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-06>
- 9.Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). Xvi–Xvii Asrlar GARBIY Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janrning Rivojlanishi. Boşqaruva va Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 191-197.

- 10.Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
- 11.Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo‘nalishlari. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 137-148.
- 12.Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
- 13.Saodat Makhkamova Bakhtiyorovna. (2021). QUESTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC GAFUR ABDURAKHMANOV ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART IN SCHOOL. Euro-Asia Conferences, 5(1), 13–18. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>
- 14.Махкамова Саодат Баҳтияровна (2021). ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ШКОЛЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 44-53.
- 15.Tulanova, D. (2021). Imaginary line in landscape painting of Uzbekistan. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 773-778.
- 16.Халилов, Р. Ш., & Атажанова, Р. Р. (2018). Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. Молодой ученый, (7), 196-199.
- 17.Xalilov, R. (2021). IMPORTANT FACTORS FOR TEACHING STUDENTS TO WORK ON LANDSCAPE COMPOSITION. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.10>
- 18.Eraliyevich, S. X., Orinbayevna, A. S., & Shavkatovich, X. R. (2020). The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools. Journal of Critical Reviews, 7(15), 2519-2523.
- 19.Халилов, Р. Ш. Проблемы традиций и новаторства в изобразительном искусстве / Р. Ш. Халилов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 2 (106). — С. 1060-1062. — URL: <https://moluch.ru/archive/106/25310>
- 20.Халилов, Р. Ш. Роль полевой практики в формировании будущих учителей изобразительного искусства / Р. Ш. Халилов, Бустаной Баркашева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 6 (110). — С. 827-829. — URL:<https://moluch.ru/archive/110/26687/>
- 21.Халилов, Р. Ш. Полотна, освященные любовью / Р. Ш. Халилов. — Текст: непосредственный // Культурология и искусствоведение : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2016 г.). — Казань : Бук, 2016. — С. 35-40. — URL: <https://moluch.ru/conf/artcult/archive/195/10508/>
- 22.KHALILOV, R. FORMATION OF SPATIAL INTELLIGENCE OF STUDENTS STUDYING IN THE DIRECTION OF ART EDUCATION THROUGH ANALYTICAL DRAWING.
- 23.Ruslan Khalilov. (2021). Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume, 11, Issue Vol. 2, Pages 98
- 24.Талипов, Н. Х. (2022). ТАСВИРИЙ САНЪАТ МАШГУЛОТЛАРИДА ПЕРСПЕКТИВАНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 2(1), 27-36.
- 25.Xalilov, R.. (2021). Роль карандашного рисунка в будущей профориентации учителей изобразительного искусства. Общество и инновации, 2(4/S), 585–590. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp585-590>
- 26.Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
- 27.Maxkamova, S., & Jabbarov, R. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san’at ta‘limi samaradorligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 27–29. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5097>
- 28.Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А.

- Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066>
- 29.Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
- 30.Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
- 31.Talipov, Nig'matjon Nozimovich (2022). KOMPOZITSIYADA IJODIY JARAYON HAMDA KOMPOZITSIYA VOSITALARI VA ME'ZONLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (5), 744-755.
- 32.Xamidovich, T. N., & Tulkunovna, S. D. (2022, May). BOLAJAK TASVIRIY SANAT MUALLIMLARINI KASBGA YONALTIRISHDA MANZARA KOMPOZITSIYASINING OZIGA XOSLIGI. In E Conference Zone (pp. 116-120).